XXIX yozgi Olimpiada o‘yinlarining ochilish marosimi yangi mingyillikning sakkizinchi yili, sakkizinchi oyi, sakkizinchi sanasida, kech soat sakkizdan sakkiz daqiqa-yu sakkiz soniya o‘tganda boshlandi.

Sakkizinchi betga qarang

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

# Tong YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil 18-avgust N:33 (66678)

# O‘N BESH MING «TILLOSI» BOR QIZ yoki Farg‘onada kitob bayrami



## 1. «KITOBLARINGIZNI SOTIB OLMOQCHIMIZ»

Nahotki, deya hayron bo‘lishingiz aniq, aziz ukajonlar! Lekin siz xulosa chiqarishga shoshilmang. Men Sizga bo‘ladigan gapni aytay: dunyo yaralibdiki, o‘g‘ri boyigan, yolg‘onchi obro‘ topgan emas, ammo kitob o‘qigan inson yuksak cho‘qqilarni zabt etib, insonlarning hurmatini qozongan, masalan, kitobga qiziqqan Muso Xorazmiy bobongiz algebra faniga asos soldi, Abu Ali ibn Sino shoh saroyi kutubxonasiga kirishga ijozat olib, undan boylik topdi va bu boylikni insoniyatga hadya etdi. Ulug‘bek Mirzo bobongiz esa yulduzlarga narvon qo‘ydi. Ko‘rdingizmi, ilm yo‘lida zahmat chekkan insonlarning nomlari asrlar osha yashaydi. Lekin bu hikmatni hamma ham teran qabul qilolmaydi. Siz esa buni har daqiqa yodingizda saqlashingiz kerak.

Biz O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan tashkil etilgan «Kitob bayrami»da ishtirok etish uchun Farg‘ona shahriga bordik. Viloyat kutubxonasiga kirdik. Kutubxona Ahmad Farg‘oniy bobongiz nomi bilan atalar ekan. Ana hurmat. El uchun xizmat qilganlar hech qachon unutilmaydi. Buni ham unutmang!

Xushsurat opangiz kompyuterda ishlab o‘tirgan ekan.

– Qancha a’zongiz bor? – deb so‘radik undan.

– O‘n besh ming! – javob qildi u.

Ismi-sharifini so‘radik. Zilola Shukurova ekan.

– O‘n besh ming tillongiz bor ekan! – deya hazillashdik.

Yengil va zavqli kulgi bo‘ldi.

– Ulardan yetti mingdan ortig‘i bolalar va o‘smirlar! – dedi faxrlangan bo‘lib.

Bitta opangiz shuncha kitobxoni borligi uchun faxrlanayotgan ekan, bu ham ma’naviyatimizning butunligini, insoniyligimizni ko‘rsatadi.

Kutubxona dahlizida «O‘zbekiston», G‘afur G‘ulom va Cho‘lpon nomidagi, «O‘qituvchi» nashriyot- matbaa ijodiy uylari, «Yangi asr avlodi» nashriyot matbaa markazi «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, «Farg‘ona» nashriyoti tomonidan nashr etilgan kitob ko‘rgazmasi tashkil etildi.

Ikki nafar o‘rta yashar ayollar yonimizga kelishib:

– Kitoblaringizni sotib olmoqchimiz! – deyishdi.

Biz bundan benihoya xursand bo‘ldik. Sababi, biz bo‘lar-bo‘lmasga kitob o‘qimay qo‘ydik, deya arz-dod qilamiz. Farg‘ona shahrining birgina kutubxonasida 15 ming kitobsevar

Davomi 2-betda

**Aziz o‘quvchilar!**

Eng sevimli va eng arzon gazetangizga yilning ikkinchi yarmi uchun

**OBUNA**

davom etmoqda. Istalgan aloqa bo‘limlarida qadrdon gazetangizga obuna bo‘lishingiz mumkin.

USHBU SONDA:

3-4-5-6-betlar — Siz uchun yangi kitobcha
7-bet — Yoshlar yoshlar haqida
8-bet — Kulgining zarari bormi?

Boshi 1-betda

borligining o‘zi bu gaplarni inkor etadi.

Marg‘ilonlik Muhayyo Madrahimova, farg‘onalik Dilorom Musajonovalar ham bolalarning kitob o‘qishga ishtiyoqlari ortib borayotganini zavq bilan so‘zladilar.

– Gazeta, jurnallarda berilayotgan yangi kitoblar haqidagi ma’lumotlarni o‘qib, shu kitoblar kutubxonangizga keldimi, deb so‘rashadi! – deyishdi ular.

Bu gap noshirlarimizni juda quvontirdi.

## 2. BIR QADAM EKAN-U...

Bayram juda tantanali boshlandi. Toshkentdan va turli shaharlardan kelgan mehmonlarning yuzlarida quyosh jilvasi aks etib turardi.

Bayramda Matbuot va axborot agentligi litsenziyalashni tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Ulug‘bek Sultonov, «Tong yuluzi» gazetasi Bosh muharriri To‘lqin Hayit, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Bosh muharriri o‘rinbosari Nazira Jo‘rayeva, farg‘onalik shoiralar Malika Mirzayeva, Enaxon Siddiqova, Farg‘ona viloyati matbuot va axborot boshqarmasi boshlig‘i Tilavoldi Jo‘rayev, «Farg‘ona» nashriyoti direktori Tavakkalxon Akbarova, shuningdek, Farg‘ona, Qo‘qon va boshqa shaharlardan kelgan kutubxonachilar, maktab, litsey va kollej o‘quvchilari, murabbiylar ishtirok etib, mustaqillik, el-yurt, ilm va ezgulik haqida so‘z yuritdilar. «Kitoblar ezgulikka yo‘llaydi» shiori ostida o‘tgan ushbu anjumanning yoshlarda katta taassurot qoldirgani aniq. Darvoqe, ulardan biri yana qayerda kitob bayrami o‘tkaziladi, deya murojaat qilishi ham behuda emasdi.

– Qatnasharmidingiz? – deb so‘radik undan va tasdiq javobini olgach, bunday anjumanlarning Namangan va Andijon viloyatlarida ham o‘tkazilishini bildirdik.

– Bir qadam ekan-u, borganimiz bo‘lsin! – dedi u jilmaygancha yengil tin olib.

Adiblar yozishdan, noshirlarimiz ularni chop etishdan charchamasinlar. Eng muhimi, yurtimizda bugun kitobxonlar sonining oshib borayotgani yuz emas, ming xursandchilik, desak arziydi.



## «GULBAHOR»DA YANA TADBIR

Uchtepa tumanidagi «Gulbahor» oromgohida «Mavsumiy yuqumli kasalliklarni oldini olish» mavzusida tadbir bo‘lib o‘tdi. Salomatlik va tibbiy statistika instituti Toshkent shahar filiali xodimlari bilan bo‘lgan suhbatlar, savol-javoblar qiziqarli tarzda o‘tdi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan bolalar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tildi.



Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanish, to‘g‘ri ovqatlanish, shaxsiy gigiyenaga e’tibor qaratish, o‘z vaqtida dam olish kabi qoidalar bolalarga eslatib o‘tildi.

–Oromgohimizda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan kelgan bolajonlar ham dam olmoqdalar, – deydi oromgoh rahbari Saidmahmud Agzamov. – Ular barcha tadbirlarda, davra suhbatlarida faol ishtirok etishyapti.

Bolalar tomonidan tayyorlangan kuy-qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari tadbirlarning jonli o‘tishiga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, «Quvnoq startlar» sport musobaqasi bolajonlarga yana-da zavq ulashdi.

*Muxlisa MUHITDINOVA,*
*Salomatlik va tibbiy statistika instituti Toshkent shahar filiali matbuot kotibi*

## MARKAZNING BIR KUNI



Aziz bolajonlar! Siz poytaxtimizda Baynalminal madaniyat markazi borligini bilasizmi? U yerdagi aka-opalaringiz nima ish qilishini-chi? Bizga kelgan ayrim maktublar bilan tanishgach esa ko‘plab do‘stlaringiz markaz haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligi bilinadi. Shuni inobatga olgan holda, sizlarga markaz tomonidan amalga oshirilgan xayrli ishlar haqida to‘xtalib o‘tmoqchi bo‘ldik.



Ma’lumki, yurtimizda yuzdan ortiq millat vakillari yashab, qo‘lni-qo‘lga berib mehnat qilib kelishmoqda. Markazda barcha xalqlar urf-odatlari, qadriyatlari saqlanib qolishi va rivojlanishi uchun bir qancha xayrli ishlar olib borilyapti.

Kuni kecha bu yerda she’riyat, til bayrami kechasi bo‘lib o‘tdi. Kechani ochgan markaz rahbari Nasriddin Muhammadiyev tojik tili va uning jozibasi haqida so‘zlar ekan, uning jahon adabiyotidagi roli kattaligini alohida ta’kidlab o‘tdi. Professorlar Najmiddin Komilov va Hasan Qudratillayevlar esa bu tilda bitilgan, dunyoni hayratga solgan asarlar va ularning mualliflari haqida qiziqarli voqealar bilan o‘rtoqlashdilar. Tadbirda xalq ardog‘idagi san’atkorlar Tesha Mo‘minov, G‘aybulla Hojiyevlarning chiqishlari barchani to‘lqinlantirib yubordi. Shoir Jafar Muhammadning go‘zal she’rlari, kosonsoylik hofiz Qosimjon Qoriyevning jonli ijrodagi mumtoz qo‘shiqlari kechaga o‘zgacha zavq berdi.

Aziz bolajon! Markazning atigi bir kunlik faoliyati haqida hikoya qildik. U yerda bunday xayrli tadbirlar doimo o‘tkazilib turiladi. Bu esa xalqlar o‘rtasida qardoshlik rishtasini yana-da mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Mustahkam do‘stlik esa eng bebaho boylik. Bu boylikdan bahramand bo‘lishga siz ham shoshiling.



*Yusuf ABDULLAYEV*

## XURSHIDADAN XUSHNUDMAN



Xurshida Xazorasp tumanidagi 2-o‘rta umumta’lim maktabida a’lo baholarga o‘qiyapti. U o‘zining intiluvchanligi, tirishqoqligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. U barcha fanlardan a’lo o‘qishi bilan birga, sinfdan tashqari tadbirlarda, badiiy kechalarda, turli tanlovlarda ham qatnashib, faxrli o‘rinlarni egallagan.

Uning she’rlari, maqolalari gazetalarda ham chop etilgan. Masalan, «Ustozimga ta’zim» sarlavhali maqolasi «Tong yulduzi» gazetasining 2006-yil sentabr sonida chop etilgan. U she’r yozish bilan birga, rasm chizishga ham qiziqadi. Xurshida «Mustaqillik mening tasavvurimda» mavzusida rasm chizish tanlovining tuman bosqichida 2-o‘rinni egalladi. U ana shunday ko‘rsatkichlari orqali maktabda o‘tkazilgan «Kelajak yulduzlari» ko‘rik-tanlovida «Yilning eng yaxshi o‘quvchisi» deb topildi. Undan nafaqat sinfdoshlari, balki maktabning barcha o‘quvchilari ham xushnud.

*V.RAJABOVA,*
*ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 360-sonli qarori hamda hukumatimizning «Yoshlar yili» Davlat dasturi asosida nogiron va kam ta’minlangan oila farzandlarining yozgi ta’til davridagi bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish maqsadida prokuratura, Xalq ta’limi vazirligi, IIB, «Kamolot» YOIH, «Mahalla» jamg‘armasi bilan hamkorlikda «E’tibor» va «E’zoz» kunlari o‘tkazilgandi. Unda ko‘plab o‘ksik qalblarga quvonch ulashildi. Quyida ana shu tadbir ishtirokchilaridan ayrimlarining dil so‘zlarini e’tiboringizga havola etamiz:**

## DIL IZHORI

Yurtboshimizning otalarcha g‘amxo‘rliklari natijasida biz kabi kam ta’minlangan oila farzandlariga juda katta e’tibor qaratilmoqda. «E’tibor» va «E’zoz» kunlarida Namangan shahriga sayohat uyushtirildi. Avvaliga o‘lkashunoslik moziygohida bo‘lib, xalqimizning boy tarixi va madaniyati bilan tanishdik. Shuningdek, Bobur nomli madaniyat va istirohat bog‘ini, mustaqillik davrida barpo etilgan inshootlarni ko‘rdik.

Bundan tashqari, To‘raqo‘rg‘ondagi «Shirinlik» madaniyat saroyidagi tadbirda bizga o‘quv qurollari, qimmatbaho sovg‘alar tortiq qilishdi. Nogiron o‘quvchilarning uylaridan xabar olingani esa nur ustiga a’lo nur bo‘ldi. Buning uchun barcha homiy tashkilotlarga o‘z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

*Baxtiyor MURODOV,*
*Anvarjon KENJAYEV,*
*To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 13-,44-umumta’lim maktablarining 6-,9-sinf o‘quvchilari*

– Albatta qaytamiz! – dedi Valera qat'iy qilib. – Axir biz shu yerda tug'ilganmiz-ku! Biz ayrilmas do'stlarmiz.
– Emanlar-chi?
– Emanlar ham ayrilmas – xuddi bizlar kabi.

## BAYRAM

Odil qo'lida yap-yangi samolyot o'yinchoq. Hovliga chiqarkan, uni bolalar darrov o'rab olishdi.
– Tegmanglar! Bu mening samolyotim! –dedi Odil qovog'ini solib.
– Bitta ushlab ko'ray, – dedi Olim.
– Hecham-da, – dedi Odil, – sindirib qo'ysang-chi?
Olim xafa bo'lib bir chekkaga o'tdi. Boshqalar ham mo'ltayib qoldi.
– Buni tug'ilgan kunimga dadam sovg'a qildilar! – o'yinchoqni boshi uzra



– Fonarchani qayerdan olding?
– Olmaxon berdi. Ertaga qaytarib beraman.
– Yaxshi, ertaga birga borib olmaxonga rahmat deymiz.
Ona quyoncha o'g'lini bag'riga bosib:
– Asosiysi, biz yana birgamiz! – dedi.
–Sizday oyim borligidan xursandman, – deya jilmaydi quyoncha.

## RAHMAT, BOBOJON!

– Men ham akamga o'xshab jasur bo'lmoqchiman, – dedi Rustam do'stiga dilidagini yorib, – u uchuvchilikka o'qiyapti.
– Bilaman, – dedi Alisher, – kel, eng baland binoga chiqib o'zimizni sinab ko'ramiz.
– Sen o't o'chiruvchilar minorasini aytyapsanmi? – dedi Rustam ajablanib, – men u yerga kecha borgan edim.





– Ertagacha! – dedi chol va bolalar ortidan xushnud qarab qoldi.

## KEL, DO'STLASHAMIZ

Yozgi ta'tilda oyimlarni ko'rgani kelsam, oyimning toblari qochgan ekan. Shifokorlar echki sutini ichishni tavsiya qilishibdi. Qo'shni ko'chada echki borligini bilardim. Echkini izlab ketayotsam, yo'lda kalta, ko'k ko'ylak kiygan qizchaga ko'zim tushdi.



– Qalaysan, qizaloq? – deb so'radim undan.
– Assalomu alaykum! – dedi u ko'zlarini qisibgina.
– Isming nima?
– Lenara.
– Chiroyli isming bor ekan. Bu yerda nima qilyapsan?
– O'zimni himoya qilyapman, – deya qo'lidagi xipchinni ko'rsatdi u.
– Kimdan?
– Bir ari meni chaqmoqchi edi, lekin ulgurmadi. O'zi mendan qo'rqib ketdi-yov.
– Juda jasur qizcha ko'rinasan, echkini topishimga yordam bersang-chi.
– Echkini? –ajablandi qizcha.
– Ha, echkini. To'g'risi, menga echki suti kerak.
– E... shunaqami? Men ham echki suti ichaman. Buvimda ikkita echki bor.
– Omadim kelganini qara-ya! Meni buvingni oldiga olib borsang-chi.
– Mana bu gullarni hidlab olay, keyin.



qirqish chizig'i

***To'plamga qahramonlari tezroq katta bo'lib, tevarak-atrofdagi qiziq hodisalar haqida ko'proq bilishni xohlagan ertak va hikoyalar kiritilgan. Ular olamdagi tirik mavjudotlarni saqlab, orzu qilib yashashga intiladilar. Bu qahramonlar ko'ngilchan va sinchkov.***

***Kuzatuvchanlik va yumor Sofiya Fayziyevaning ijodiga xos xususiyatlardir. Uning kitoblari nafaqat qiziqarli, balki ibratlidir.***

***Bolalarning sevimli jurnali «Gulxan»da uzoq yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan ajoyib ijodkor Vasila Po'latova ushbu ertak va hikoyalarni o'zbek tiliga tarjima qilib, bolajonlar hukmiga havola qildi.***

***Bu mitti kitobcha ham javoningizdan munosib o'rin olishiga, shuningdek, ta'til kunlaringizga mazmun bag'sh etishiga umid qilamiz.***

shifoxonaga olib ketayotib.



– Endi ozgina chidaysan-da, bolakay, – dedi oq xalatli shifokor. – Bolalar bilan urishdingmi, deyman-a?
– Yo'q, yiqilib tushdim, – deya yolg'on gapirdi Odil.
– O'g'il bola chapdast bo'lishi kerak. Yiqilib, qoqilib yurish yarashmaydi, – deya uning oyog'iga dori surtib bog'lab qo'ydi shifokor ayol. – Bora qol, endi ehtiyot bo'lib yurgin!
Odil uyga qaytganida, eshigining tagida uni Xilola xola kutib turardi.
– Mana senga olxo'ri, bolam, – deya unga tog'orachada olxo'ri uzatdi xola. Olxo'rilar ko'm-ko'k edi. Odilning yuzi qizarib, boshini quyi egib oldi.
– Odiljon, ertaga bog'imizga kel, olxo'ri terishda menga ko'maklashasan, – dedi Xilola xola mehribonlik bilan boshini silab.
– Albatta yordam beraman, – dedi Odil eshitilar-eshitilmas nigohini yerdan uzmay.
Shunday dedi-yu, Xilola xolaning qo'lidagi tog'orachani olmay, uyiga yugurib ketdi.



edi. Quyoncha fonarchani ovoz kelgan tomonga qaratdi.
– Quloqvoy! O'g'lim! – ovoz qaytaladi.
– Albatta, bu mening oyijonim. U meni qidiryapti, – quvonib ketdi quyoncha.
– Oyijon! Men bu yerdaman! – deya ovoz berdi u ham.
Quloqvoy shuni angladiki, ovoz narigi qirg'oqdan kelayapti:
– O'g'lim, qo'rqma! Men bu yerdaman! Qirg'oq bo'ylab yur! Nariroqda yangi ko'prik bor. O'sha yerda uchrashamiz!
Quyoncha o'zida yo'q xursand, oldinga qarab yugurdi. U yugura turib onasini bir-bir chaqirib ham qo'yar edi:
– Oyi, men yo'ldaman. Qo'rqyapman. Menga fonarcha yordam berayapti.
Nihoyat, u yangi ko'prikka yetib keldi. Ona-bolaning ko'zlari quvonchga to'la. Quloqvoy halloslagancha ko'prik ustida to'xtadi. Onasi tomon shoshildi.
– Meni urushmang, oyijon! Endi boshqa qochmayman.





ko'tarib maqtandi Odil.
– Bo'lmasa, bir o'zing o'ynayver! – dedi chiroyli qiz Laylo.
Qum uyumi yonida Odilning kecha sindirgan o'yinchog'i yotar edi. Laylo uni Olimga uzatib:
– Mashinani tuzatib ber, men unda Moshni uchirmoqchi edim, – dedi.
– Moshning o'zi qani? – yon-atrofga alangladi Olim.
– Oyim bilan Leopold ismli mushuk haqidagi multfilmni ko'rayapti.
– O'zing nega ko'rmayapsan?
– Men bu multfilmni oldin ko'rganman, – dedi Laylo va umid bilan qaradi. – Mashinani qachon tuzatib berasan?

Sofiya FAYZIYEVA

# AJRALMAS DO'STLAR



(Ertak va hikoyalar)

Toshkent – 2008
«Tong yulduzi»

**Tarjimon:**
**Vasila Po'latova**
**Ilhom Zoir**
**tahriri ostida**

**Kitobni**
**tayyorlaganlar:**

**To'lqin HAYIT**
**Manzura UBAYDULLAYEVA**
**Zuhra MUXSIMOVA**
**Rassom:**
**Bahrom KALONOV**

«Tong yulduzi» kutubxonasi



– Hozir, – Olim o'yinchoq mashinaning g'ildiraklarni mahkamladi. – Ana, tayyor bo'ldi. Endi Moshni uchira olasan.

– Rahmat! O'zing zo'r ustasan-da! – dedi Olimni alqab. –Mosh xursand bo'ladigan bo'ldi. Sen ustasan, Odil esa ustabuzarmon. Bunaqalar qayerdan paydo bo'ladi-a?

Ertasi kuni Olim otasi bilan «Bolalar dunyosi» do'koniga bordi. Peshtaxtada katta quti ustiga havorang samolyot rasmini ko'rgan Olim:

– Ana shunaqasidan bo'lganda edi! – dedi beixtiyor.

Otasi o'g'lini xursand qildi va ota-bola mamnun qaytishdi. Olimni qarshi olgan Laylo quti bog'ichini yechishga, Rustam va Ahmad esa qopqoqni ochishga yordam berdi.

– Bugun «aeroport» o'yinini o'ynamiz, – dedi Olim.

– Urra! – deb qichqirishdi bolalar.

– Men sizlar bilan ham o'ynasam maylimi? – deb so'radi Odil.



g'o'la yo'q edi. «Endi daryodan qanday o'tib olaman», dedi quyoncha qo'rquvdan titrab. Axir u suzishni ham bilmas edi-da! «Xodani kim olib tashlagan ekan-a? Birorta qaroqchi bo'lsa kerak-da», dedi xayol surib.

Quyoncha onasidan bo'rilar haqida ko'p hikoyalarni eshitgan edi. O'ylab-o'ylab daryoni aylanib o'tishga qaror qildi. Albatta, bunga ancha yo'l yurish kerak edi, lekin nachora, u qaroqchining qo'liga tushishni yoki daryoda cho'kib ketishni sira xohlamas edi.

U tikanli butazorlar-u toshloqlarni aylanib oldinga intilarkan, fonarcha unga dalda bo'ldi. Biroq, shunda ham qo'rqinch vujudini tark etmasdi. Chunki u hali kichkina edi-da.

Quloqvoy charchab, biroz dam olishga qaror qildi va bir to'nkada o'tirib, onasini o'rgatgan qo'shiqni kuylay boshladi. Shunda «Quloqvoy, qayerdasan? Javob ber!» degan ovozini eshitib qoldi. U bu ovoz egasini darrov tanidi. Bu –onasining ovozi



Qizaloq gullarga yaqinlashib, ularni mehr bilan silab qo'ydi.

– Bu chiroyli gullarni kim ekkan? – deb so'radim undan.

– Men emas-ku, lekin gullarga suv quyishga yordam beraman.

– Yaxshi qiz ekansan!

Biz qizaloqning uyi tomon ketarkanmiz, ro'paramizdan katta qum uyumi chiqdi. U yerda esa katta malla kuchuk yotardi. Qizcha qo'limni mahkam ushladi va:

– Qo'rqmang! U sizga tegmaydi. Bu mening do'stim – Polkan, – dedi.

Polkan esa cho'zilib olib uxlab yotar edi. Biz unga yaqinlashganimizda, erinibgina chap ko'zini ochib, chap qulog'ini qimirlatib qo'ydi.

– Tinchlan, Polkan! Bu menman, yonimda esa mening dugonam. Yotaver, bizga hech xalaqit qilmayapsan, seni aylanib o'tamiz. Uxlayver, do'stim! – dedi qizaloq.

Biz aylanib o'tdik. Lenara hamon qo'limni qattiq ushlab olgan edi. Polkan



– Qanday baland-a! Qani endi men ham uchsam! – hayajondan entikdi Rustam.

Chol qiyshaygan do'ppisini to'g'rilab: – Hademay sizlar ham o'sib-ulg'ayasizlar, – dedi. – Bunga ishonchim komil. Sen, Rustam yaxshi uchuvchi, ehtimol fazogir bo'larsan.

– Bobo, siz bunga ishonasizmi? – deb so'radi Rustam.

– Albatta ishonaman, bolam, – dedi bobo.

– Rahmat, bobojon. Men astoydil harakat qilaman.

– Sen-chi, Alisher, sen kim bo'lmoqchisan?

– Men baland imoratlar qurishni o'rganmoqchiman.

– Yashavor! – dedi chol Alisherni alqab. – Sizlar albatta orzularingizga yetishasizlar. Endi Hamma uy-uyiga.

– Ertagacha, bobojon, – dedi bolalar.



qirqish chizig'i



– Seni u yerga qanday o'tkazib yuborishdi?

– Tanish amaki yordam berdi. U bilan birga chiqdik. Yasha, azamat, qo'rqmas ekansan, deb amaki meni alqadi.

– Zo'r-ku! Unda yangi qurilgan to'qqiz qavatli bino tomiga chiqamiz, – dedi Alisher.

– Bo'pti, qancha baland bo'lsa, shuncha yaxshi, – dedi Rustam.

– Qara-chi, u yerda qorovul bormi?



– dedi Valera. – Faqat suv quyish kerak, shunda ular tezroq o'sadi. Ana, ariq ham bor ekan.

– Ko'ryapman, lekin qanaqa qilib quyamiz, chelagimiz yo'q-ku? – bezovtalandi Rustam.

– Otquloqlarni kattaligiga qara! – Valera otquloqning eng katta bargini uzib, Rustamga berdi.

Nihollarni sug'organdan keyin ariqda o'zlari ham cho'milib, emanlarning yonida dam olishmoqchi bo'lishdi.

– Qara, emanlarning bargi qimirlayapti. Ehtimol, sug'organimiz uchun rahmat deyishayotgandir?

– Ehtimol endi ularni har kuni sug'oramiz.

– Otquloq bargi foyda berganini-chi?!

– Ha, barglar bo'lmaganda, suv quya olmasdik.

– Mana ko'rasan, bizlar katta bo'lganimiz-da, bu nihollar ham osmonga bo'y cho'zib, katta daraxtlarga aylanishadi.

– Qiziq, biz yana bu yerga qaytarmikanmiz? – deb so'radi Rustam.

5



tomonga yugurib ketdi. Rustam o‘tiraverib zerikdi va sekinginga o‘rnidan turib atrofga nazar solarkan, bir-biriga suyangan eman daraxtlariga ko‘zi tushdi.

Rustam yugurib kelgan Valerani ko‘rib zavqlandi.

– Bularning tizilib turganiga qara! Balki bularni o‘zimizning bog‘ga ko‘chirsakmikan? –dedi Valera nihollarga ohista qo‘l tekkazib.

– Yo‘q. Shu yerda qolgani ma’qul.

– Ha, mayli,

21



Daraxt tagida bir oqsoqol o‘tirardi. Bolalar uning yoniga borib, salom berishdi.

– Bobo, bu sizning uyingizmi? – deb so‘radi Alisher.

– Meniki, nima edi? – dedi chol.

Bolalar chol bilan gaplasha turib, ahyon-ahyonda ko‘p qavatli binoning tepasiga qarab-qarab qo‘yishar edi.

– Bobo, ertaga ham kelsak maylimi? – dedi Rustam. –Kech bo‘lib qoldi, uyga ketishimiz kerak.

– Albatta, men har kuni shu yerdaman. Hozir esa uylaringga boringlar. Qaranglar, osmonda yulduzlar chiqibdi. Hosilni ham yig‘ib olsa bo‘ladi, – dedi chol kulib.

10

– Bildim-da!

– Unda nega ruxsat bermaysiz? Uy baland-ku!

– Uy balandku-ya, lekin osmon undan-da baland, – chol osmonga tikildi, keyin nigohini ariqdagi suvga qaratdi. Ariqdagi suv jildirab oqardi. Chinor barglari esa xuddi bir sirni aytmoqchiday shitirlar edi.

– Bobo, sizda ham bolalik orzulari bo‘lganmi?

– Albatta. Bu yerlarda ariqlar sharqirab oqib, bog‘-u rog‘lar bo‘lishini orzu qilardim. Mana, ariqlar limmo-lim oqmoqda. Bog‘lar yam-yashil, olma-yu shaftolilar g‘arq pishib yotibdi, osmon musaffo.

– Ana, qaranglar, samolyot uchib o‘tyapti, – deb qoldi shu payt Rustam.

– Balki bu kosmik kemadir? – dedi Alisher.

– Ha, ha, uchyapti, – chol ham o‘rnida qimirlab qo‘ydi.

13

ko‘zini yumdi, lekin qulog‘i hamon qimirlar edi. Xavf orqada qolganda, qizaloq yengil nafas oldi.

–Uning chiroyliligiga qarang, – dedi u.

– Ha, rostdan ham chiroyli ekan, – dedim men.

– Ertalab u yig‘lagan edi.

– Nega?

– Sog‘inchdan.

– Kimni sog‘inadi?

– Kimni bo‘lardi, nevaralarini-da!

– Uni qara-ya!

– Tezroq yuring. Buvim hozir uydalar. Ertalab echkilarni o‘tloqqa olib chiqqan edilar.

– Buvingga yordam berasanmi?

– Men echkilarga qarashgim keladi, lekin ular urishqoq, yaqinlashsang, suzishadi. Men ulardan qo‘rqaman.

– Men ham.

– Echkilar tayoqni yomon ko‘rishadi. Jahllari chiqsa, yugurib kelib kalla qo‘yishadi. Lekin siz qo‘rqmang. Chunki

18



yu, baland-baland devorlar bunga to‘sqinlik qilardi.

Bir kuni u devordan amallab oshib o‘tmoqchi bo‘libdi. Lekin uddasidan chiqa olmabdi. Devorga chiqishga chiqibdi-yu, olxo‘riga qo‘li yetmabdi. Devor tagiga taxlab qo‘yilgan taxtalar ustiga oyog‘ini qo‘ygan ekan, kattagina mix kirib ketibdi. Ko‘chadan o‘tib ketayotgan Jo‘ra amaki bazo‘r devordan tushirib qo‘yibdi.

– O‘g‘lim, nega u yerga chiqib olding? Olxo‘ri yeging kelsa, egasidan so‘rasang, o‘zi berardi-ku, – dedi Jo‘ra amaki Odilni

29

## QIZIQUVCHAN CHUMCHUQ

Quyosh daraxtlar ortiga botib, atrofni qorong‘ulik egalladi. Mitti chumchuq onasining qanoti ostida tipirchilarkan:

– Oyijon, quyosh o‘zi qanaqa? – deb so‘radi.

– Quyosh rahmdil, e’tiborli va sinchkov, – dedi onasi jilmayib.

Kichkintoyning quyosh to‘g‘risida yana



2

qirqish chizig‘i

Kayfiyating ko‘tarilib, qo‘rquving yo‘qoladi.

– Rahmat, olmaxon, – dedi quyoncha minnatdor qiyofada. – Fonarchangni ertaga qaytarib beraman.



– Yaxshi. Ertagacha!

Olmaxon bergan fonarcha quyonchaga ancha dalda berdi. Ammo daryoga yetib to‘xtadi. Chunki qirg‘oqlarni tutashtiruvchi

5

– O‘zingni samolyoting bor-ku! – deya e’tiroz bildirdi Laylo.

– Uning qanoti sinib qoldi, – deya xo‘mraydi Odil.

Olim jilmayib:

– Bo‘pti, samolyotingni olib kel, tuzatib beraman. Har holda aeroportda bittadan ko‘ra, ikkita samolyot bo‘lgani tuzuk.

Odil samolyotini, Laylo esa shirinliklar olib kelgani uyga ketdi.

– Buvijon, endi hovlimizda aeroport bor, – dedi Laylo uyga kirib, – menga ko‘k ko‘ylagimni bering.

– U kuylagingni bayramlarda kiyar eding-ku, – hayron bo‘ldi buvisi.

– Bugun hovlimizda bayram-da, buvijon. Qarang, bolalar qanchalik xursand, – deya yer tepindi Laylo.

– Tezroq bo‘la qoling. Axir u yerda meni yo‘lovchilar kutishyapti...

26



## OSMONIMIZ BIR

– Oyijon, kaptarlarning chug‘ur-chug‘urini eshiting, – dedi Hakim derazani lang ochib, – ular palaponlari bilan gaplashishyapti.

– Nimalar haqida gaplashishayotgan ekan? – dedi onasi qiziqib. – Balki osmon haqidadir, ehtimol, tong otib, yangi kun

27

– Albatta, endi uxla.

– Katta bo‘lganimda men ham faqat quvnoq qo‘shiqlar kuylayman. Bilasizmi, men kim haqida kuylayman?

– Kim haqida ekan?

– Siz haqingizda!

– Rahmat, bolajonim!

– Yaxshi yotib turing, oyijon! Ertaga quyosh ko‘proq isitsin.

– Aytganing kelsin. Yaxshi yotib tur, bolajonim!

## QULOQVOY

Bir kuni Quloqvoy laqabli quyoncha o‘rmonda adashib qolibdi. Qorong‘i tusha boshlagach, ma’yus tortib, onasini eslab chuqur xo‘rsindi. Keyin bir katta daraxt tagida o‘tirib yig‘ladi ham. Uning yig‘isini eshitgan olmaxon:

– Yig‘lama, quyoncha. Mening fonarchamni ol, – dedi rahmdillik bilan. –

4

bir nimalarni bilgisi keldi. Ona chumchuq mayin va past ovozda:

– Ertalab quyosh uyg‘onadi-da, tog‘lar ortidan chiqib, «Odamlar uyg‘ondimikin?» deya yer yuziga nazar tashlaydi, shunda: «Hamma uyg‘onadi», deb javob berishadi qushlar chug‘urlashib, – dedi.

– Qushlar nima haqida chug‘urlashadi? – deb so‘radi chumchuq.

– Qushlar o‘zlarining palaponlari haqida g‘am-tashvishlari-yu xursandchiliklari bilan o‘rtoqlashadilar. Ularning qo‘shiqlarida qancha xursandchilik ko‘p bo‘lsa, quyosh ham shuncha ko‘proq isitadi.

– Oyijon, siz ham ertaga quyoshga men haqimda aytib berasizmi?

– Agar hoziroq yotib uxlasang, albatta aytib beraman, bolajonim.

– Xo‘p bo‘ladi. Siz ham dam oling. Men haqimdagi qo‘shig‘ingiz quvnoq va jarangdor chiqishini xohlayman. Shunday qilasiz-a, oyijon?

3

chiqqanini gaplashishayotgandir?

– Biz bilan bir tom ostida yashayotganlari uchun xursanddirlar balki?

– Bo‘lsa bordir...

Kechqurun ko‘rshapalaklar uchib yurganini ko‘rgan Hakim:

– Oyijon, tomimiz ostida ko‘rshapalaklar ham yashar ekan, – deb qoldi.

– Ha, o‘g‘lim. Ular devor kavaklarida chirmashib, kun bo‘yi uxlashadi.

– Men buni bilmagan ekanman. Ular tunda uchishar ekan-da? Demak, ular ham xursand, – keyin osmonga qarab: – Biz hammamiz nafaqat bir binoda, bir osmon ostida yashaymiz ekan-da?

Bolakay qo‘llarini keng yozib, yulduzlarga, osmonga, onasiga va ko‘rshapalaklarga zavq bilan qaradi.

## KO‘K OLXO‘RI

Qo‘shnimiz Xilola xolaning bog‘ida ko‘k olxo‘ri pishibdi. Odilning ana shu olxo‘rilardan juda-juda tatib ko‘rgisi kelardi-

28

qirqish chizig‘i

ular buvimdan qo‘rqishadi. Buvim menga bir piyola sut beradilar. Men esa sutning yarmisini ichaman. Faqat hech kimga aytmang.

– Yarmisini nima qilasan?

– Polkanga beraman.

– Sen mehribon ham ekansan, seni yoqtirib qoldim.

Qizaloq jilmayganda yuzlarida chiroyli kulgichlar paydo bo‘ldi.

– Ana, keldik, – dedi u. – Siz kiravering, men yana birozo‘ynayman. Siz bilan kirsam, buvim olib qoladilar meni.

Darvoza g‘ichillab ochildi. Keng hovliga kirdim. Sochlari qordek oppoq, o‘rta bo‘yli ayol ochiq chehra bilan kutib olarkan, u men bilan dildan suhbatlashib, idishimga sut quyib berdi. Ko‘chaga chiqsam, Lenara menga yana ergashdi.

– Buvim meni so‘ramadilarmi?

– Yo‘q.

– Unda yaxshi, men sizni kuzatib qo‘yaman, – dedi Lenara qo‘lidagi xipchinni

19

olib kelay? – dedi aka.

– Samolyot uchun ehtiyot qismlar, – dedi uka.

– Yig‘ma o‘yinchoqmi? Bo‘pti, olib kelib beraman, – dedi aka ukaning sochlarini silab. – Oyimga qarash, aytganlarini qil...

Akasi chiqib ketgach, Rustamning uyqusi ham qochdi. Baland imorat oldida o‘tirgan cholni esladi. Uyning tomiga chiqib, jasurligini sinay olmaganidan afsusda edi.

Ertasiga yana o‘sha mehribon chol bilan uchrashishganda, cholning ko‘zlari kulib turar edi. Chol bilan suhbatlashish maroqli edi. Bolalar unga kun davomida nimalar bilan mashg‘ul bo‘lganliklarini aytib berishdi. Chol qiziqish bilan tinglab, oxirida bolalarni quchoqladi-da:

– Orzuning borligi qanday yaxshi-ya! – dedi orziqib. – Orzuga intilishni hurmat qilaman. Lekin buning uchun tomga chiqishning hojati yo‘q.

– Bizning tomga chiqmoqchiligimizni qayerdan bildingiz? – ajablandi Alisher.

12

Birpasda qorong‘i tushib qoldi-ya, o‘yladi Alisher. Chol bilan xayrlashgach, bolalar uylari tomon ketishdi.

Hovlilariga yetib kelgach, bolalar harbiy kiyimdagi kishini ko‘rishdi. Uning atrofini boshqa bolalar o‘rab olishgan.

– Axir bu Baxtiyor akam-ku! – dedi Rustam va harbiy kishi tomon yugurdi.

– Voy bolapaqir-ey! – dedi Baxtiyor Rustamni quchoqlab – katta bo‘lib qoldim, qorong‘ulikda ham o‘ynab olaman, deb o‘ylayapsanmi? Yur, uydagilar seni kutib o‘tirishibdi.

Baxtiyor harbiy bilim yurtida o‘qir, ba’zida ta’tilga kelib qolsa, Rustamlarning uyida bayram bo‘lib ketardi. Bu gal ham Rustam akasining harbiy bosh kiyimini kiyib ko‘rdi. U hali ham katta. Rustam xafa bo‘lib, «Namuncha sekin o‘syapman-a?» deb o‘yladi.

Yotishdan oldin Baxtiyor Rustamning xonasiga kirdi. U hali uxlamagan ekan.

–Moskvaga ketyapman, senga nima

11

o‘ynatib.

– Xipchinni nima qilasan? – deb so‘rasam:

– U menga tez yugurishga yordam beradi, – dedi, – undan keyin menga hech kim ozor bera olmaydi. Siz esa Polkanga yoqib qolibsiz.

– U ham menga yoqdi.

– Polkan ham xuddi shunday o‘ylaydi. Kechqurunlari u bilan birga o‘ynaymiz. Nevaralari ham kelishadi.

– Kelishlari aniqmi?

– Albatta.

– Biz hammamiz do‘stlashamiz-a?

– Albatta do‘stlashamiz.

## AJRALMAS EMAN DARAXTLARI

Rustam bilan Valera berkinmachoq o‘ynashar edi. Rustam na’matak butasi orasida jimgina o‘tirganda, Valera boshqa

20

**E'tibor berdingizmi, yangi rukn tashkil qildik.** Yoshlarimiz ilm-fan sohasida bo'ladimi, adabiyot va san'atdami, sport sohasidami, qo'ying-chi, har jabhada ulkan yutuqlarni qo'lga kiritayotgan tengdoshlariga havas qilishadi va bu haqida bizga to'lqinlanib yozishadi.

Aziz o'quvchilar, atrofingizga ziyrakroq boqing: o'z bilimi, salohiyati, intilish va izlanishlari bilan yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shayotgan do'stingiz, dugonangiz yoki shunchaki tengdoshingiz haqida albatta bizga yozing. Bu ularni yangi-yangi marralar sari ruhlantiradi, boshqalar qalbida havas uyg'otadi.

## «SHOSHIL, YURAGIM!»



Iqlima yoshligidanoq badiiy ijod shaydosi. She'rlar qoralaydi, qo'shiq kuylash jon-u dili. O'zi kuylagan qo'shiqlari bilan xalqaro festivalda ham ishtirok etgan. Ko'plab ko'rik-tanlovlarda qatnashib, sovrinli o'rinlarga sazovor bo'lib kelayotgan Iqlima Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga nomzodlar tanlovining respublika bosqichida «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi. Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 49-ixtisoslashtirilgan maktabning 9-sinf o'quvchisi Iqlimaga ijodkor tengdoshlari havas bilan qarashadi. Chunki maktab o'quvchisi bo'laturib, «Go'zal orzular» hamda «Sog'inch» nomli ikkita kitobi bosmadan chiqishga ulgurdi.

«Shoshil, yuragim! Yana-da ko'proq ezgu amallar bajarishga, yana-da go'zalroq so'zlar aytib, qo'shiqlar kuylashga shoshil! Beg'ubor ko'zlarim, bedor bo'lingiz! Har bir kunning o'zgacha shukuhini ilg'ab olish va uni boshqalarga yetkazish uchun ham bedor bo'lingiz! Axir oltinlarga qiyos yoshlik davrimizning har kuni, har oni g'animat!»

Iqlimaxonning hayotdagi shiori shunday. Ularga amal qilib, «Farzandlarimiz bizdan-da bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart», deya orzu qilgan yurtboshimiz ishonchini oqlashga intilib yashayapti.

*Navro'za UMAROVA,*
*Xorazm viloyati*

## MENING HAM ULUSHIM BO'LSA...



Mazkur yilning «Yoshlar yili» deb nomlanishidan shodlanib, ruhlanib yurgan tengdoshlarimdan biri Umida Murodovadir. Adabiyotga, she'riyatga mehr qo'ygan bu qizaloq maktabda tahsil olib yurgan kezlaridayoq gazetamizning eng faol muxbirlaridan sanalardi. Uning dolzarb mavzudagi maqola va xabarlari o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. She'rlari esa o'quvchini beixtiyor tabiat qo'yniga, uning ko'z ilg'amas kengliklari, yam-yashil yalangliklari sari yetaklaydi, go'yo. Ana shunday she'riy mashqlari «Bo'stonliq ovozi», «Ma'rifat», «Turkiston», «Sog'lom avlod» gazetalari, «Gulxan», «Qalqon» jurnallarida ham tez-tez chop etilib turadi.

Umidadan ustozlarining umidi katta. Ular ishonchini oqlash uchun ham astoydil harakat qiladi, izlanadi. Tuman, viloyat va respublikada o'tkaziladigan ko'plab tanlov va musobaqalarda o'z bilimi, salohiyatini sinab ko'radi. 2007-yilda o'tkazilgan «Kelajak ovozi» respublika mega-tanlovining g'olibasi bo'lib, ustozlarini quvontirdi.

– Ota-onalarimiz, buva va buvijonlarimiz biz yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar, imkoniyatlarga juda havas qilishadi, – deydi Toshkent Islom universiteti qoshidagi akademik litseyda a'lo baholarga tahsil olayotgan Umida mamnuniyat bilan. – Demak, biz ham bunday imkoniyatlarni qadrlashimiz, ulardan unumli foydalanishimiz lozim. Kelajakda O'zbekistonimizni rivojlangan mamlakatlar qatoridagina emas, ular ham havas qiladigan yurt sifatida ko'rishni va bunda mening ham biroz bo'lsa-da, ulushim bo'lishini istayman.

*Shahlo SIDDIQOVA,*
*S.Sirojiddinov nomli akademik litseyning 112-guruh o'quvchisi*

## HUQUQSHUNOS BO'LAMAN



Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi «Kamolot» tashkilotining «Mehr-shavqat» guruhi sardoriman. Yoshligimdan she'riyat va san'atga qiziqaman. She'r va maqolalarim tuman, viloyat gazetalarida chop etilmoqda.

Orzularim cheksiz: kelajakda adolatli huquqshunos bo'lib xalqimga xizmat qilish niyatidaman.

## HAYOT

Lochin qushdek uchgim keladi,
Keng samoni quchgim keladi.
Erkin parvoz aylab, kengliklar
Sof havosin ichgim keladi.

Yuksaladi ruhim ham ozod,
Orzular ham yozadi qanot.
Yana qandoq so'z aytay senga,
Axir juda go'zalsan, Hayot!

*Mushtariybegim SEYTMATOVA*

## BOLALIKKA QAYTGIM KELADI



Bola bo'lib keldim dunyoga,
Bola bo'lib qolgim keladi.
Yurakdagi bor dardlarimni,
Maysalarga aytgim keladi.
Jajjigina murg'ak yoshlikka,
Yana bir zum qaytgim keladi.
Sho'xliklarga ko'milib shodon,
Yoshligimni quchgim keladi.
Bolalikka qaytgim keladi...

*Fotima OLIMJON qizi*

## BUGUNNING «YANGI AVLOD»LARI





**Tanishing: Farg'ona shahridagi 33-o'rta ta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Havoxon Anvarova.**

Tasviriy san'at, matematika, adabiyot fanlariga qiziqadi. 2007-yilda «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'olibasi bo'ldi. Sahifamiz qahramoni Havoxon o'zi tahsil olayotgan maktabning faxri hisoblanadi. U maktabdagi asr vabosi, navoiyxonlik, she'riyat kechalarida faol qatnashib, bir necha bora «Maqtov yorliq»lari bilan taqdirlangan.

Sevimli bayrami: Navro'z.

Havoxon bo'sh vaqtidan unumli foydalanishga intiladi. Qahramonimiz Farg'oni shahridagi 1-son o'quvchi yoshlar texnik ijodiyot markazidagi kulolchilik to'garagiga ham qatnaydi. 2006-yil Fransiya davlatida o'quvchi yoshlar ko'rgazma yarmarkasida kulolchilik namunalari bilan qatnashib, moddiy rag'batlantirildi.

Yoshligidan Leonardo Da Vinchi, Mikel'anjelo, o'zbek rassomlaridan Rozi Choriyev, Akmal Nur, Rahim Ahmedov ijodiga qiziqadi. Ushbu san'at turini hayotini bir bo'lagi sifatida his etadigan Havoxonga bu mehr otasidan o'tgan, desak mubolag'a bo'lmas. Qahramonimizning otasi Abdusalom Ma'murov O'zbekiston Badiiy akademiyasi a'zosi, 1-son o'quvchi yoshlar texnik ijodiyot markazida kulolchilik to'garagi rahbaridir. Havoxon kelajakda mashhur rassom va dizayner bo'lmoqchi. U orzular ro'yobini ko'rish maqsadida tinmay izlanmoqda.

*Nazokatxon TOJIBOYEVA*

## MOHISADAF

Juda chiroyli, kamyob ism-a? Men ana shunday ismi jismiga monand bir qizni bilaman. U poytaxtdagi 13-maktabning 9-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Tirishqoqligi, tashabbuskorligi, qiziquvchan va zukkoligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadigan bu qizning adabiyot va san'atga ham mehri bo'lakcha. U dutor chertganida, bulbullar o'z sozidan or qilgandek sukutga cho'madi, go'yo. Betakror tashbehlarga boy she'riy mashqlari, dolzarb mavzudagi maqolalari hech kimni befarq qoldirmaydi. Ijodida Vatan, ona, tabiat mavzulari yetakchilik qiladi.

Mohisadaf Ubaydullayeva 2007-yilda o'tkazilgan «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivalida she'riyat yo'nalishi bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

–Festival bahonasida ko'plab yangi do'stlar orttirdim, bilmaganlarimni o'rgandim, o'zimga bo'lgan ishonchim ortdi. Yil davomida bilimlarimni yana-da mustahkamlab borsam, kelasi yili albatta g'alaba qozonaman...

Ana shunday umid va ishonch bilan izlanayotgan tengdoshimiz tuman miqyosida o'tkazilgan «G'azalxon yoshligim» ko'rik-tanlovida qatnashib, «Bahru bayt» yo'nalishida g'olib bo'ldi va shahar bosqichiga yo'llanma oldi.

Mohisadafning ma'suma qalbi orzularga limmo-lim. Kelgusida Zulfiyaxonim qizlari qatoridan munosib o'rin olish uchun astoydil intilyapti. Zero, intilganga tole yor, deb bejiz aytilmagan.

*Nazokat VALIYEVA,*
*O'zMU talabasi*

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.



## UMR O'TAR...

*Badia*

Ba'zan shunday savol tug'ilishi mumkin. Rejalashtirishga rejalashtirdim-u, shunday katta yukni orqalashga toqatim yetarmikan, sabrim, zakovatim, qobiliyatim pand berib, xasta va majruhlikka mubtalo bo'lmaymanmi, irodam sinib qolmaydimi, degan xavotirlar xayolga kelishi mumkin. Xavotirlanmang.

Aniq maqsadning ulug'ligi yana shundaki, olaylik, Tojmahal maqbarasini qurish ham bir odamning aniq maqsadi edi. Yoinki, Amerikadagi Ozodlik haykalini qurishni ham birgina odam o'z oldiga aniq maqsad qilib qo'ydi. Uning qurilishida esa minglab odamlar qatnashdi. Misr ehromlari ham bir kishining aniq maqsadi, g'oyasi edi. Ming chaqirimlarga cho'zilgan va asrlar osha yashab kelayotgan, aqlga sig'maydigan, afsonaviy Xitoy devorini qurish ham bitta odamning aniq g'oyasi, tashabbusi edi. So'ngra, uni yuz yillar davomida millionlab odamlar bunyod etdilar. Fikri, zehni, qalbining qo'ri, intilishlari, orzu-umidlari bir kuchga yig'ilgan odam, xuddi quyosh nurlari bor joyga to'planganda, olov hosil qilganiday katta kuchga aylanishini hech qachon yodingdan chiqarma!

*Muhammad ISMOIL*

Tamom

# «Tong yulduzi»da «Olimpia yozi» tanlovi

**Tug'ilgan kuni – 08.08.08.**
**Tug'ilgan joyi – 8-tug'ruqxona**

Poytaxtimizdagi 8-tug'ruqxonaning birinchi bo'limida 8-avgust sanasi bilan besh nafar chaqaloq dunyoga keldi. Ikki qizalog'-u uch nafar o'g'ilchalar vaqti kelib ulg'aygach, faxr bilan «Biz 2008-yil Olimpiya o'yinlari boshlangan kunda tug'ilganmiz», deb eslab yursalar, ne ajab. Biz ham ularni bir kun kelib O'zbekiston Olimpiya terma jamoasi safida ko'rishni istaymiz.

Chaqaloqlar O'zbekiston Olimpiya qo'mitasi, Xitoyning O'zbekistondagi elchixonasi, «Nestle –O'zbekiston» qo'shma korxonasi hamda «Tong yulduzi» gazetasining esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.









# MUROSASIZ O'YIN... VA DURANG

Shayxontohur tumanidagi «Zangiota» mahallasini ko'pchilik «shaxmatchilar» mahallasi deb atashadi. 8-avgust kuni bo'lib o'tgan tadbirdan so'ng bunga o'zimiz ham amin bo'ldik.

Xabaringiz bor, shu kuni Pekinda Olimpiada o'yinlarining ochilish marosimi bo'lib o'tishi kerak edi. Mahallada esa shu munosabat bilan shaxmat turniri bo'lib o'tdi. Mahalla oqsoqoli Ubaydulla aka Oripov turnirni ochar ekan, avvalambor, Pekin Olimpiadasida yurtimiz sharafini himoya qiluvchi sportchilarimizga omad tiladi. Shundan so'ng, otaxonlar dona surishga kirishdilar. Ayniqsa, G'anijon aka Ismoilov va Mirsoat ota Mirmusayev bahsi qizg'in o'tdi. Mahallaning mutlaq chempioni nomiga ega Mirsoat otaning bu gal ham omadi chopib, finalga chiqdilar.

Xuddi shu joyga kelganda turnirning eng hayajonli onlari boshlandi. Mahalla chempioniga qarshi kim maydonga chiqdi deng, aytsam, ishonmaysiz, shu tumandagi 85-umumta'lim o'rta maktabining 5-sinf o'quvchisi Afzalxon Toshxo'jayev. Tumanda maktablararo o'tkazilgan birinchiligida ikkinchi o'rinni egallagan Afzalxon haqiqatan ham Mirsoat otaga munosib raqib ekanligini ko'rsatdi. Uzoq davom etgan murosasiz dona surishlardan so'ng Mirsoat ota Afzalxonga durang taklif etdilar. Tomoshabinlar bu taklifni qarsaklar bilan kutib oldilar.

Afzalxonning o'yinini ko'rganlar kamondan o'q otish bo'yicha sakkiz karra O'zbekiston chempioni, Germaniya, Turkiya, Ukraina, Rossiya va Osiyo chempionatlarida qatnashib, sovrindor bo'lgan mahalla faxri Jamshid Sodiqovga munosib izdosh voyaga yetayotganidan mamnun bo'lishdi.

Tadbirda ishtirok etgan Xitoy elchixonasi vakili Lyu Guchuan janoblari Pekin Olimpiadasiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirdan mamnun ekanligini ta'kidlab, O'zbekiston va Xitoy sportchilariga zafarlar tiladi. Anjuman rejissyori va loyiha muallifi Flora Faxruddin Pekin Olimpiadasi haqida yig'ilganlarga bir-biridan qiziqarli bo'lgan ko'plab ma'lumotlar berdi.

Musobaqa nihoyasida mahallaning eng keksa otaxoni, yuzlaridan nur yog'ilib turgan Rahim ota Karimov Pekin maydonlarida bellashuvga chiqadigan barcha sportchilarimizga omad tilab, xayrli duo qildilar.

# KETGIMIZ KELMAYAPTI

Poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 301-maktab namunali bilim maskanlaridan biri hisoblanadi. Yaqinda bu yerda maktab oromgohining yopilishiga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi. Unda qatnashgan bolalar olam-olam taassurotlar bilan qaytdilar. Xitoy elchixonasi, O'zbekiston olimpiya qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan «Olimpiya yozi» «Tong yulduzi» bilan tanlovi negizida tadbir juda qiziqarli o'tdi. O'quvchilarga Pekin Olimpiadasiga oid ko'hna Xitoy davlati haqida ma'lumotlar berildi.

Bolalar bilan Olimpiada borasida bo'lib o'tgan savol-javoblar ularning bu sohada anchagina ma'lumotlarga ega ekanligini namoyon etdi.

Bolalarni maktab oromgohida yaxshi hordiq olishlari uchun bosh-qosh bo'lib Tatyana Semeykina maktab oromgohi haqida so'zlab berarkan, bolalar sportining bir necha turi bo'yicha shug'ullanishlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilganini alohida ta'kidlab o'tdi. Oromgohda bolalarning dam olishi to'rt bosqichga bo'lingan ekan. Har bosqichda yuzdan ortiq bolalar hordiq olishibdi.

Tadbir davomida mazkur maktab sport sohasida o'ziga xos yutuqlarga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Maktab direktori Oqila Muhitdinova sobiq o'quvchisi suv polosi bo'yicha O'zbekiston chempioni Aleksandra Sarancha haqida iftixor bilan so'zlab berdi. O'z navbatida oromgoh egasi bo'lgan o'quvchilar ham o'z dasturlarini namoyish etdilar. Davra juda ko'ngilli va fayzli o'tdi. Bayram nihoyasida asosini boshlang'ich sinf o'quvchilari tashkil etgan birinchi guruh bolalari ketgimiz kelmayapti, deb biroz davrada turib qolishdi. Ustozlarining chehrasiga kulgu yog'ildi. Xayollarida bir fikr: bolalarga ma'qul bo'libdi, demak, yomon ishlamabmiz.

*Flora FAXRUDDIN,*
*Yusuf FAYZULLO*

# KULGINING ZARARI BORMI?

Adab bog'idan durlar izlayotgan bola, bilki, har narsada me'yor bor. Kulgi nima o'zi? Hazrat Alisher Navoiy bobongiz: «Adabsizlikning biri kulgidir», deydilar. Inchunun, tabassum bilan uning orasida yer bilan osmoncha farq bor. Tabassum ko'ngilning mehridan tug'iladi, kulgi esa birovning aybidan yuzaga keladi. Kaklik dunyoning ustidan qahqaha solib kulgani uchun ovchilar tuzog'iga tushadi. G'uncha kulib ochilgani uchun sochilib ketadi va shamollarga mazax bo'ladi. Chaqmoq kula-kula tuproqqa kiradi.

Sen ayb qilgan o'rtog'ingning, do'stingning, sinfdoshingning ustidan qahqaha otib kulding. Bugun Quyosh seniki edi. Ertaga Quyosh unga kulib boqadi va sening yuzing qora bo'ladi. Kimki birovning ustidan kular ekan, falak uni jazosiz qoldirmaydi, o'zini boshqalarga kulgi qiladi.

Hayvonot bog'idagi maymun o'ziga ovqat beriladigan idishni boshiga kiyib odamlarni masxara etmoqni ixtiyor etadi-yu, ammo o'zining mayna bo'layotganini sezmaydi.

Bobongiz aytadilar:

«Odamlarni kuldirib tirikchilik o'tkazishga o'rgangan masxaraboz ulardan bir pul olguncha ikki shapaloq yeydi».



Adabsiz bola behayo qiliqlar qilib, birovlar ustidan kulgani uchun kattalardan dakki eshitadi. Hozircha falak uni shunday yengil ogohlantirib turadi, ertaga bulardan saboq chiqarmay birovlarning ustidan kulishda davom etsa, yaxshilar safidan o'rin ololmaydi.

Adab bog'idan chin tarbiyaning sadaf gullarini terayotgan bolakay sening kelajak yo'llaringda adabsizlik in qo'ya olmasin, deya nasihat sandig'ini ochdik. Ko'rdingmi, kulgining foydasi birla zarari ham bor ekan!


Tong YULDUZI
Vatan yagonadir, Vatan bitadir!
O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

BOSH MUHARRIR:
**To'lqin HAYITOV**

**Muassislar:**
O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
**Zuhra MUXSIMOVA**
Navbatchi:
**Feruza SOYIBJON qizi**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

**Manzilimiz:**
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
**Tel: 244-27-25, 244-63-08**
**Tel./faks:**
**(99871) 244-38-10**

Rassom:
**Feruz MATYOQUBOV**

**«O'zbekiston»**
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
**ISSN 2010-6092**

**Adadi - 21477**
**Buyurtma N: J 5802**